



MAKTAB DIREKTORLARINING MEDIAKOMPETENTLIK DARAJASINI BAHOLASH MEZONLARI VA TEXNOLOGIYASI

Djalolov Nozimjon Valeriyevich
Oriental universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining mediakompetentlik darajasini baholash uchun kompetensiyaviy, ko'p manbali va uzluksiz diagnostikaga asoslangan texnologiya yoritilgan. Baholashning motivatsion-qadriyatli, kognitiv-tahliliy, operatsion-texnologik, kommunikativ-boshqaruv hamda huquqiy-etik-refleksiv mezonlari, ularning vazn koeffitsiyentlari va asosiy indikatorlari tizimlashtirilgan. Diagnostika o'zini o'zi baholash, bilim-tahlil testi, media keys, autentik amaliy mahsulot, elektron portfolio va yarim tuzilgan intervyuni uyg'unlashtirish orqali tashkil etilishi asoslangan. Turli vositalar natijalarini 0–100 oralig'iga normallashtirish va vaznlangan mediakompetentlik indeksini hisoblash taklif etilgan. Natijalar bazaviy, reproduktiv, produktiv va strategik darajalarda talqin qilinadi. Huquqiy-etik-refleksiv mezon uchun kritik xavfsizlik minimumi joriy etilishi, shuningdek T0–T4 bosqichlar orqali kursdagi natijani ish joyiga transfer va institutsional barqarorlik bilan bog'lash zarurligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: mediakompetentlik, maktab direktori, baholash mezoni, indikator, media keys, autentik baholash, mediakompetentlik indeksi, refleksiya, transfer monitoringi.

CRITERIA AND TECHNOLOGY FOR ASSESSING SCHOOL PRINCIPALS' MEDIA COMPETENCE LEVELS

Abstract. The article presents a competency-based, multi-source and continuous technology for assessing the media competence of general secondary school principals. Five assessment criteria are systematized: motivational-value, cognitive-analytical, operational-technological, communicative-managerial, and legal-ethical-reflective, together with their weights and observable indicators. The assessment combines self-assessment, a knowledge and analysis test, media cases, an authentic practical product, an electronic portfolio and a semi-structured interview. Results from different instruments are normalized to a 0–100 scale and integrated into a weighted Media Competence Index. Four performance levels are proposed: basic, reproductive, productive and strategic. A critical safety minimum is introduced for the legal-ethical-reflective criterion to prevent high technical or analytical scores from compensating for unsafe practices. The T0–T4 sequence links entry diagnostics, formative monitoring, final assessment, workplace transfer and institutional sustainability, thereby turning assessment from a certification procedure into a professional development management technology.

Keywords: media competence, school principal, assessment criteria, indicator, media case, authentic assessment, competence index, reflection, transfer monitoring.



КРИТЕРИИ И ТЕХНОЛОГИЯ ОЦЕНКИ УРОВНЯ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ ДИРЕКТОРОВ ШКОЛ

Аннотация. В статье представлена технология оценки медиакомпетентности директоров общеобразовательных школ, основанная на компетентностном подходе, многоканальной диагностике и непрерывном мониторинге. Систематизированы пять критериев: мотивационно-ценностный, когнитивно-аналитический, операционно-технологический, коммуникативно-управленческий и правовой-этический-рефлексивный. Оценивание объединяет самооценку, тест знаний и анализа, медиакейсы, аутентичный практический продукт, электронное портфолио и полуструктурированное интервью. Результаты нормализуются по шкале 0–100 и объединяются в взвешенный индекс медиакомпетентности. Выделены базовый, репродуктивный, продуктивный и стратегический уровни. Для правового-этического-рефлексивного критерия предлагается критический минимум безопасности. Последовательность T0–T4 связывает входную диагностику, формативный мониторинг, итоговую оценку, перенос результата на рабочее место и институциональную устойчивость, что позволяет использовать оценивание не только для контроля, но и для управления профессиональным развитием руководителя школы.

Ключевые слова: медиакомпетентность, директор школы, критерий оценки, индикатор, медиакейс, аутентичное оценивание, индекс компетентности, рефлексия, мониторинг трансфера.

KIRISH

Raqamli transformatsiya, ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik fikriga ta'siri, generativ sun'iy intellekt va dezinformatsiya xavfi maktab rahbarining axborot bilan ishlash faoliyatini boshqaruvning alohida obyektiga aylantirmoqda. Direktor endilikda faqat elektron hujjat yurituvchi yoki platformalardan foydalanuvchi emas, balki maktabning axborot siyosatini belgilovchi, jamoatchilik bilan strategik kommunikatsiyani boshqaruvchi, xodimlar va o'quvchilarning raqamli xavfsizligiga mas'ul lider sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois uning mediakompetentligini baholash texnik amallarni sanash yoki subyektiv o'zini o'zi baholash bilan chegaralanmasligi kerak.

UNESCO media va axborot savodxonligini axborotga kirish, uni tanqidiy tahlil qilish, yaratish, etik almashish va mas'uliyatli ishtirokni birlashtiruvchi kompetensiyalar tizimi sifatida talqin qiladi [1]. Maktab direktori faoliyatiga tatbiq etilganda ushbu kompetensiyalar boshqaruv vakolati, bolalar manfaatlari, jamoatchilik ishonchi, tashkilot reputatsiyasi va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'lanadi. Shuning uchun baholashning obyekti media iste'molchining umumiy savodxonligi emas, balki rahbarning real boshqaruv vaziyatida dalilga asoslangan, etik va xavfsiz qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Tadqiqotning maqsadi maktab direktorlarining mediakompetentligini komponentlar kesimida o'lchash, turli diagnostik dalillarni yagona indeksga integratsiya qilish va natijani kasbiy rivojlanish qaroriga aylantirishga xizmat qiluvchi baholash mezonlari hamda



texnologiyasini ilmiy asoslashdan iborat. Bunda baholash yakuniy nazorat sifatida emas, diagnostik, rivojlantiruvchi, prognostik va boshqaruv funksiyalarini uyg'unlashtiruvchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida qaraladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Maqola Djaylavov Nozimjon Valeriyevichning "Maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasining 2.2-paragrafida ishlab chiqilgan baholash texnologiyasi materiallariga tayangan holda tayyorlandi. Tadqiqotda kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, kontekstual va refleksiv yondashuvlar integratsiya qilindi. Baholash mezonlarini shakllantirishda media va axborot savodxonligi, ta'lim liderligi, raqamli boshqaruv, pedagogik diagnostika hamda autentik baholashga oid ilmiy manbalar qiyosiy va mazmuniy tahlil qilindi [1–6].

Diagnostik konstruktni aniqlashda besh komponentli model – motivatsion-qadriyatli, kognitiv-tahliliy, operatsion-texnologik, kommunikativ-boshqaruv va huquqiy-etik-refleksiv tarkiblar – mezonlarga aylantirildi. Har bir mezon kuzatiladigan indikatorlar bilan bog'landi. Dalillarni triangulyatsiya qilish uchun deklarativ, kognitiv, faoliyat, mahsulot, dinamik va izohlovchi ma'lumot manbalari birlashtirildi. Baholash natijalarini o'zaro qiyoslash uchun xom ballarni 0–100 oralig'iga normallashtirish, mezonlar vazni asosida integrallash va darajalarga ajratish usuli qo'llandi.

Baholash texnologiyasining tamoyillari sifatida validlik, ishonchlilik, autentiklik, triangulyatsiya, xolislik, shaffoflik, xavfsizlik, rivojlantiruvchanlik va uzluksizlik qabul qilindi. Ushbu tamoyillar bir tomondan o'lchash sifatini, ikkinchi tomondan baholash natijasining real boshqaruv qarori uchun foydaliligini ta'minlaydi. Ayniqsa, autentiklik tamoyili topshiriqlarni direktorning kundalik ish holatlariga – shubhali xabarni tekshirish, o'ta-onalar uchun rasmiy murojaat tayyorlash, inqirozli vaziyatga javob berish, maktab media strategiyasini ishlab chiqish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi vazifalarga yaqinlashtirishni talab etadi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida maktab direktorining mediakompetentligini baholash uchun besh mezonli tizim ishlab chiqildi. Mezonlarning vazni ularning maktab boshqaruvidagi funksional ahamiyatini hisobga olgan holda belgilandi. Kognitiv-tahliliy mezonga 25 foiz, operatsion-texnologik, kommunikativ-boshqaruv va huquqiy-etik-refleksiv mezonlarning har biriga 20 foiz, motivatsion-qadriyatli mezonga 15 foiz ulush ajratildi. Bunda motivatsiya faoliyatni yo'naltiruvchi omil sifatida muhim bo'lsa-da, real boshqaruv vazifasini mustaqil va xavfsiz bajarish qobiliyatini to'liq almashtira olmaydi.

**1-jadval.****Maktab direktorining mediakompetentligini baholash mezonlari**

Mezon va vazni	Asosiy indikatorlar	Kuzatiladigan boshqaruv natijasi	Asosiy baholash dalili
Motivatsion-qadriyatli — 15%	Media ochiqqligi; dalillilik qadriyati; kasbiy mas'uliyat; o'zini rivojlantirish motivatsiyasi.	Media bilan ishlash maqsadini maktab boshqaruvi va jamoatchilik ishonchi bilan bog'laydi.	Anketa, vaziyatli tanlov, refleksiv esse.
Kognitiv-tahliliy — 25%	Manba ishonchliligi; fakt va fikrni ajratish; dezinformatsiya; algoritmik va vizual manipulyatsiyani anglash.	Manbani tekshiradi, dalillarni qiyoslaydi va xulosani asoslaydi.	Bilim-tahlil testi, faktcheking, media keys.
Operatsion-texnologik — 20%	Platforma tanlash; elektron hujjat; media mahsulot; ma'lumotlar va AI vositalaridan foydalanish.	Vosita va platformani maqsadga mos, samarali va xavfsiz qo'llaydi.	Amaliy topshiriq, autentik mahsulot auditi.
Kommunikativ-boshqaruv — 20%	Auditoriya tahlili; xabar dizayni; qayta aloqa; inqirozli kommunikatsiya.	Turli manfaatdor tomonlar bilan izchil va maqsadli kommunikatsiyani boshqaradi.	Simulyatsiya, brifing, media strategiya.
Huquqiy-etik-refleksiv — 20%	Shaxsiy ma'lumot; bolalar huquqi; mualliflik; kiberxavfsizlik; refleksiya.	Xavfni oldindan aniqlaydi, etik qaror beradi va o'z amaliyotini takomillashtiradi.	Huquqiy keys, elektron portfolio, intervyu.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, baholash tizimining eng katta ulushi kognitiv-tahliliy mezonga berilgan. Bu maktab direktorining media faoliyati avvalo axborot va dalilning ishonchliligini tekshirish, fakt bilan fikrni farqlash va qarorni asoslash qobiliyatiga tayanishini anglatadi. Operatsion, kommunikativ va huquqiy-etik-refleksiv mezonlarning teng vaznlanishi esa texnologik mahorat, jamoatchilik bilan muloqot va xavfsizlikni o'zaro muvozanatlangan boshqaruv natijasi sifatida ko'rishga imkon beradi. Motivatsion-qadriyatli komponentning nisbatan kichik ulushi motivatsiyaning ahamiyatini pasaytirmaydi; aksincha, u amaliy faoliyat bilan tasdiqlanishi lozimligini ko'rsatadi.

Har bir indikator uchun to'rt pog'onali analitik rubrika qo'llanadi: 0 ball – harakat bajarilmagan yoki xavfli; 1 ball – qisman, ko'rsatma asosida bajarilgan; 2 ball – mustaqil va asosan to'g'ri bajarilgan; 3 ball – strategik, dalillangan, kontekstga mos va boshqalarga yo'naltiruvchi darajada bajarilgan. Bunday rubrika baholovchiga faqat yakuniy mahsulotni emas, qarorning mantiqi, dalilliligi, xavfsizligi va keyingi transfer imkoniyatini ham baholash imkonini beradi.

Diagnostika oltita vositani uyg'unlashtiradi: o'zini o'zi baholash anketasi, bilim-tahlil testi, media keyslar, autentik amaliy mahsulot, elektron portfolio va yarim tuzilgan intervyu. Ularning daliliy kuchi bir xil emas. O'zini o'zi baholash motivatsiya va anglangan ehtiyoj haqida ma'lumot beradi, biroq yakuniy xulosada cheklangan ulushga ega bo'ladi. Media keys




va amaliy mahsulot real boshqaruv faoliyatini namoyon etgani uchun asosiy dalil sifatida qaraladi. Portfolio rivojlanish dinamikasini, intervyu esa qarorning ichki mantiqi va etik asosini aniqlashtiradi.

Turli vositalarda olinadigan xom ballarni bir tizimda talqin qilish uchun har bir natija 0–100 oralig'iga normallashtiriladi. So'ng umumiy mediakompetentlik indeksi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$MKI = 0,15MQ + 0,25KT + 0,20OT + 0,20KB + 0,20HER$$

Bu yerda MQ – motivatsion-qadriyatli, KT – kognitiv-tahliliy, OT – operatsion-texnologik, KB – kommunikativ-boshqaruv, HER – huquqiy-etik-refleksiv mezonning normallashtirilgan bali. Indeks natijasi bazaviy (0–49 ball), reproduktiv (50–64 ball), produktiv (65–84 ball) va strategik (85–100 ball) darajalarda talqin qilinadi. Darajalar bilim hajmini emas, rahbarning vazifani qanday mustaqillik, murakkablik va strategik ta'sir darajasida bajara olishini ifodalaydi. Shu bilan birga, umumiy indeks individual rivojlanish qarori uchun yagona asos bo'la olmaydi; har bir mezon bo'yicha alohida profil ham tahlil qilinishi zarur.

Baholash tizimiga kritik xavfsizlik minimumi kiritiladi: huquqiy-etik-refleksiv mezon bo'yicha natija 50 balldan past bo'lsa, umumiy indeks yuqori bo'lishidan qat'i nazar strategik daraja berilmaydi. Mazkur cheklov bolalar tasviri va shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanish, mualliflik huquqi, kiberxavfsizlik, generativ AI xizmatlariga maxfiy axborot kiritish yoki tekshirilmagan xabarni tarqatish bilan bog'liq xatolarni boshqa kuchli ko'nikmalar hisobiga kompensatsiya qilish mumkin emasligi bilan izohlanadi [2].



1-rasm. Maktab direktorlarining mediakompetentligini baholashning T0–T4 algoritmi



Sxemada baholash bir martalik yakuniy nazorat emas, vaqt bo'yicha davom etuvchi sikl sifatida ifodalangan. T0 bosqichida boshlang'ich profil va individual ehtiyoj aniqlanadi; T1 bosqichida o'quv jarayoni davomida xatolar va o'sish kuzatilib, topshiriqlar moslashtiriladi; T2 bosqichida yakuniy kompleks natija va daraja belgilanadi; T3 bosqichida 30–60 kundan so'ng kursda yaratilgan mahsulotning maktab amaliyotiga ko'chishi tekshiriladi; T4 bosqichida esa olti oydan keyingi institutsional barqarorlik baholanadi. Natijada baholash kurs yakunidagi ballni emas, rahbarning real boshqaruv amaliyotida yuz bergan va saqlanib qolgan o'zgarishni aniqlashga yo'naltiriladi.

MUHOKAMA

Taklif etilgan texnologiyaning asosiy farqi mediakompetentlikni texnik ko'nikmalar yig'indisi emas, ko'p o'lchamli boshqaruv kompetensiyasi sifatida baholashidir. Ta'lim liderligi bo'yicha tadqiqotlar direktor ta'siri maktab iqlimi, pedagoglar salohiyati, resurslar va tashkiliy jarayonlar orqali yuzaga chiqishini ko'rsatadi [5]. Raqamli liderlik tadqiqotlari ham rahbarning vazifasi texnologiyani o'zi qo'llash bilangina cheklanmasdan, jamoaning maqsadli va xavfsiz foydalanish madaniyatini shakllantirishdan iborat ekanini ta'kidlaydi [8, 9]. Shunga ko'ra, baholashda individual topshiriq bilan bir qatorda direktor tomonidan yaratilgan media siyosati, kommunikatsiya protokoli yoki xavfsizlik qoidasi kabi institutsional mahsulotlar ham hisobga olinadi.

M. Axmedov xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirishda tizimli monitoring kursgacha bo'lgan diagnostika, kurs jarayonidagi nazorat va kursdan keyingi mustaqil faoliyat monitoringini o'zaro bog'lashini ta'kidlagan [7]. Mazkur yondashuv ushbu tadqiqotda rivojlantirilib, T0–T4 ketma-ketligi orqali boshlang'ich diagnostikadan ish joyiga transfer va olti oylik institutsional barqarorlikkacha kengaytirildi. Natijada monitoring "qayta aloqa" vositasi sifatida nafaqat o'zlashtirishni tekshiradi, balki individual ta'lim trayektoriyasi, mentorlik va maktab amaliyotiga ko'chirish bo'yicha boshqaruv qarorini ham shakllantiradi.

Baholashning validligi birgina test natijasi bilan ta'minlanmaydi. Media xabarni tanqidiy baholashda manbalararo qiyoslash va lateral o'qish strategiyalarining samaradorligi ko'rsatilgan [10]. Shu sababli bilim-tahlil testida oddiy eslab qolish topshiriqlari cheklanishi, asosiy qism vaziyatli, manbaga tayangan va qaror talab qiladigan topshiriqlardan tuzilishi lozim. Media keyslar esa real boshqaruv vaziyatidagi vaqt bosimi, manfaatdor tomonlar, huquqiy cheklov va reputatsion xavfni birgalikda hisobga olishga majbur qiladi.

Triangulyatsiya tamoyili baholash natijasining ishonchliligini oshiradi. O'zini o'zi yuqori baholagan rahbar amaliy keysda past natija ko'rsatishi yoki aksincha, o'ziga ishonchi past bo'lgan rahbar real vazifani yuqori sifatda bajarishi mumkin. Vositalar o'rtasidagi bunday tafovut statistik shovqin sifatida emas, individual rivojlanish uchun alohida diagnostik signal sifatida talqin qilinishi kerak. O'zini o'zi baholash bilan amaliy natija orasidagi sezilarli farq refleksiya, mentorlik va maqsadli topshiriqlarni rejalashtirishga asos bo'ladi.

Baholovchilararo ishonchlilikni ta'minlash uchun media keys va autentik mahsulot kamida ikki ekspert tomonidan bir xil rubrika asosida baholanishi maqsadga muvofiq. Ekspertlar oldindan namunaviy ishlar bo'yicha kalibrlash sessiyasidan o'tadi; sezilarli tafovut yuzaga kelganda uchinchi ekspert yoki konsensus sessiyasi qo'llanadi. Elektron platformada



respondentni anonim kodlash, shaxsiy ma'lumotlarni minimallashtirish, rolgga asoslangan kirish huquqi va baholash tarixini qayd etish xolislik va xavfsizlikni kuchaytiradi.

XULOSA

Maktab direktorlarining mediakompetentligini baholash texnologiyasi real boshqaruv faoliyatini o'lchashga yo'naltirilgan besh mezonli, ko'p manbali va uzluksiz tizim sifatida asoslandi. Motivatsion-qadriyatli, kognitiv-tahliliy, operatsion-texnologik, kommunikativ-boshqaruv va huquqiy-etik-refleksiv mezonlar direktorning munosabati, bilimi, amaliy faoliyati, qarori va xavfsizlik mas'uliyatini yaxlit qamrab oladi. Oltita diagnostik vositaning uyg'unligi natijani birgina test yoki subyektiv bahoga qaram qilib qo'ymaydi. 0–100 ballik vaznlangan mediakompetentlik indeksi umumiy darajani aniqlashga, komponent profili esa individual rivojlanish yo'nalishini belgilashga xizmat qiladi. Huquqiy-etik-refleksiv mezon uchun kritik minimumning joriy etilishi xavfsiz va mas'uliyatli media boshqaruvini ustuvor qiladi. T0–T4 algoritmi esa baholashni kurs yakunidagi nazoratdan kasbiy rivojlanishni, ish joyiga transferi va institutsional barqarorlikni boshqaruvchi texnologiyaga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. UNESCO. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners. 2nd ed. Paris: UNESCO, 2021. 403 p.
2. Miao F., Cukurova M. AI Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO, 2024. 52 p. DOI: 10.54675/ZJTE2084.
3. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/c74f03de-en.
4. Global Education Monitoring Report Team. Global Education Monitoring Report 2024/5: Leadership in Education – Lead for Learning. Paris: UNESCO, 2024.
5. Grissom J.A., Egalite A.J., Lindsay C.A. How Principals Affect Students and Schools: A Systematic Synthesis of Two Decades of Research. New York: The Wallace Foundation, 2021.
6. Darling-Hammond L., Wechsler M.E., Levin S., Leung-Gagné M., Tozer S. Developing Effective Principals: What Kind of Learning Matters? Palo Alto, CA: Learning Policy Institute, 2022. 100 p. DOI: 10.54300/641.201.
7. Axmedov M. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda tizimli monitoring bosqichlari // Xalq ta'limi. – 2017. – №3. – B. 88–91. [Google Scholar profili](#)
8. Sheninger E.C. Digital Leadership: Changing Paradigms for Changing Times. 2nd ed. Thousand Oaks, CA: Corwin, 2019. 288 p.
9. Tømte C.E. Conceptualisation of professional digital competence for school leaders in schools with 1:1 coverage of digital devices // Computers & Education. 2024. Vol. 222. Article 105151. DOI: 10.1016/j.compedu.2024.105151.
10. Wineburg S., Breakstone J., McGrew S., Smith M.D., Ortega T. Lateral Reading on the Open Internet: A District-Wide Field Study in High School Government Classes // Journal of Educational Psychology. 2022. Vol. 114, No. 5. P. 893–909. DOI: 10.1037/edu0000740.



11. Hobbs R. Media Literacy in Action: Questioning the Media. 2nd ed. New York: Bloomsbury Publishing, 2024. 426 p.

12. Begimqulov H.Sh. Malaka oshirish tizimida professional ta'lim pedagog kadrlarining mediakompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 53 b.